



Interpretation of concepts related to binomial expressions in linguistics

Shokhrukh ERMATOV¹

Andijan State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2025
Received in revised form
15 March 2025
Accepted 25 April 2025
Available online
15 May 2025

Keywords:

binomial expression,
structure,
semantics,
language system,
speech,
stability,
combinatorics.

ABSTRACT

This article explores the concept of binomial expressions and the related linguistic categories. It analyzes the structural and semantic characteristics of binomial units, their role within the language system, and their functional use in speech. Special attention is given to their stability, combinatorial properties, and contextual usage. The findings aim to enrich theoretical perspectives on binomial constructions in linguistics.

2181-3663/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss3-pp38-42>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Tilshunoslikda binomial hosilalar bilan bog'liq tushunchalar talqini

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

binomial hosila,
struktura,
semantika,
til tizimi,
nutq,
barqarorlik,
kombinatorika.

Ushbu maqolada binomial hosilalar tushunchasi va u bilan bog'liq lingvistik kategoriyalar ko'rib chiqiladi. Binomial hosilalarning struktura va semantik xususiyatlari, ularning til tizimidagi o'rni va nutqdagi funksional vazifalari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada binomial ifodalar barqarorligi, ularning kombinatorik xususiyatlari va kontekstda qanday ishlatilishi masalalari yoritiladi. Tadqiqot natijalari tilshunoslikdagi binomial birliklar haqidagi nazariy qarashlarni yanada boyitishga xizmat qiladi.

¹ Lecturer, Andijan State Institute of Foreign Languages. E-mail: shahermatov@gmail.com

Интерпретация понятий, связанных с биномиальными образованиями в лингвистике

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

биномиальное образование, структура, семантика, языковая система, речь, стабильность, комбинаторика.

В данной статье рассматривается понятие биномиальных образований и связанные с ними лингвистические категории. Анализируются структурные и семантические особенности биномиальных выражений, их роль в языковой системе и функциональные характеристики в речи. Особое внимание уделяется стабильности данных выражений, их комбинаторным свойствам и функционированию в контексте. Результаты исследования способствуют углублению теоретических представлений о биномиальных единицах в лингвистике.

“Binom” atamasi lotincha *bi* (“ikki”) va *nomen* (“nom”) soʻzlaridan kelib chiqqan boʻlib, u turli manbalarda turlicha talqin qilingan (Kopaczyk & Sauer, 2017). Lingvistik adabiyotda binomlar odatda bir xil soʻz turkumiga mansub boʻlgan, sintaktik jihatdan teng maqomda turgan va “and”, “or”, “but” kabi bogʻlovchilar orqali birlashtirilgan ikki soʻzdan iborat birliklar sifatida izohlanadi. Bu termin lingvistik muomalaga birinchi boʻlib Yakov Malkiel tomonidan 1959-yilda “Irreversible Binomials” nomli maqolasida kiritilgan. Binomial hosilalar ekspressivlik, leksik bogʻliqlik, baʼzida esa rifmovkalilik xususiyatlariga ega boʻlib, ular *part and parcel* (ajralmas qism), *alarums and excursions* (hayajonlanish, harakat), *common or garden* (odatiy), *tear or fav* (uzoqmi yoki yaqinmi), *last but not least* (soʻnggisi, lekin muhimroq emas), *slowly but surely* (sekin, lekin aniq) kabi shakllarda namoyon boʻladi.

Binomlarni ilmiy oʻrganish tarixi taxminan ikki yuz yil ilgari boshlangan. Bu hodisani ilk bor tizimli oʻrganishga harakat qilgan olim Yakob Grimm hisoblanadi. 19-asrda yashagan va mashhur “Grimm qonuni”ni ishlab chiqqan bu nemis lingvisti 1828-yilda chop etilgan *Deutsche Rechtsalterthümer* (“Qadimgi Germaniya qonunlari yodgorliklari”) asarida qadimgi german tillarida, shu jumladan qadimgi ingliz tilida qoʻllanilgan huquqiy binomlarni toʻplagan. Eʼtiborga molik jihat shundaki, Grimm bu birikmalarni “binom” atamasi bilan atamagan boʻlsa-da, ularning shakli va qoʻllanilish xususiyatlarini tahlil qilgan.

Shuni alohida taʼkidlash lozimki, Grimm va Malkiel tadqiqotlari orasida 37 yil vaqt farqi mavjud boʻlsa-da, atamani fanga birinchi marta kiritgan va ilmiy jihatdan aniqlab bergan shaxs Yakov Malkiel hisoblanadi. Grimm esa faqatgina binomial hosilalarni amaliy tahlil qilgan, lekin ularni terminologik asosda belgilamagan.

Professor M.E. Umarxodjayevning fikricha, oʻzbek tilidagi juft birliklar – bu tilning tarixiy taraqqiyoti, xalq tafakkurining arxaik qatlamlari, mifologik dunyoqarashi va tafakkurdagi dualistik (ikkilik) printsiplar asosida shakllangan barqaror birliklardir. U bunday birliklarni tilning mental, kontseptual va assotsiativ tizimi bilan bogʻlaydi. Tadqiqotchining taʼkidlashicha, juft birliklar orqali til oʻzida mavjud boʻlgan qarama-qarshi tushunchalarni yagona semantik birlikda jamlaydi va shu orqali inson tafakkurining dikhotomik asoslarini ifodalaydi: yer va osmon, honimlar va janoblar, kecha va kunduz kabi binomlar faqat leksik darajada emas, balki kognitiv darajada ham yaxlitlik kasb etadi. M.E. Umarxodjayev bunday birliklarning semantik barqarorligi va kontekstda qayta

faollashish xususiyati haqida soʻz yuritar ekan, ularni milliy-madaniy tafakkur mahsuli sifatida baholaydi va ularning folklor, maqol va matallarda keng qoʻllanishini tilning aforistik xususiyatlari bilan bogʻlaydi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, binomial hosilalar til tizimidagi oddiy birikmalardan farq qilib, kontekstual, stilistik va pragmatik jihatdan alohida oʻringa ega boʻlgan kreativ birliklar sirasiga kiradi.

Zamonaviy ingliz tilida binom birliklarining qoʻllanishi sezilarli darajada kengaygan. Binomlar nafaqat kundalik soʻzlashuvda, balki ommaviy madaniyat va tijorat sohalari ham faol tarzda qoʻllanilmoqda. Ya.Malkiel oʻz tadqiqotida binom hosilalarning kitob sarlavhalari, badiiy va musiqiy asarlar nomlari, mashhur jurnallar, kompaniyalar, restoranlar va kafelar nomlarida keng tarqalganini koʻrsatib oʻtadi. U reklama sohasida binomlar “vosita” sifatida samarali ishlatilishini va biznes sohalari bu tendensiyadan ongli ravishda foydalanayotganini taʼkidlaydi. Masalan, *Sight and Sound*, *Beauty and the Beast*, *Pride and Prejudice* kabi nomlar bu jarayonning yaqqol misollaridir.

Binomlarning faolligi nafaqat tilshunoslik, balki psixologik omillar bilan ham izohlanadi. Bu holatni “ketma-ket fikrlash tendensiyasi” bilan tushuntirish mumkin. Bunda soʻzlovchi oʻz fikrini binom shaklidagi juft birliklar orqali ifodalab, murakkab sintaktik tuzilmalardan qochadi va fikrni soddalashtiradi.

Bundan tashqari, binomdagi ikki komponent (A va B) baʼzida bir obyekt yoki tushunchaning ikki tomonini ifodalaydi. Bu holatda soʻzlovchi aynan binomni tanlaydi, chunki u obyektning ikki xil nuqtai nazardan koʻrsatishga, yaʼni ikki ramz orqali bir fikrni yetkazishga intiladi. Damovaga koʻra, ayrim obyektlar tabiatan ikkilik xususiyatga ega boʻlib, ular strukturaviy jihatdan ikki komponent yoki qutbga ajraladi. Shu bois bu kabi obyektlar til vositasida ham ikki ramz orqali ifodalanishga moyil boʻladi.

Yakov Malkiel tomonidan taqdim etilgan taʼrifga koʻra, binomlar – bu bir xil soʻz turkumiga mansub boʻlgan, qatʼiy yoki qatʼiy boʻlmagan, sintaktik chegaralar doirasida bogʻlangan leksik juftliklardir. Bu juftliklar odatda *and*, *or*, *but* kabi bogʻlovchilar yordamida biriktiriladi. Malkiel “sintaktik ierarxiyada teng daraja” deganda, faqat ikki soʻz orasidagi munosabatni emas, balki ikkita mustaqil sintaktik birlik yoki gap qismlari oʻrtasidagi tenglikni ham nazarda tutadi. Shu sababli, masalan, “*we went there and then we did...*” tarzidagi tuzilma *there and then* binomiga misol boʻlolmaydi, chunki bu yerda gaplar bogʻlangan.

Ushbu dissertatsiyada Malkielning keng qamrovli yondashuvi asos qilib olinadi va oʻzbek tiliga qiyoslangan holda tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida asosiy soʻz turkumlariga (*ot*, *feʼl*, *sifat*) mansub binomlar tahlil qilinadi va *and*, *or*, *but* kabi bogʻlovchilar orqali bogʻlangan barcha binom birliklar koʻrib chiqiladi. Masalan: *law and order*, *more or less*, *slow but steady*.

Malkiel oʻz tadqiqotlarida avvalgi yondashuvlarni tanqid qilib, ularni binomial hosilalarni toʻliq qamrab olmaganini taʼkidlaydi. Unga koʻra, koʻplab tadqiqotlar binomlarni turli nomlar ostida, masalan, “idiomatik juftliklar” deb atab, faqat ayrim qatʼiy(irreversiv) binom turlarini oʻrganish bilan chegaralangan. Jumladan, nemis tilshunosligidagi *Zwillingsformel* (yaʼni, “egizak formulalar”) atamasi faqat qatʼiy binomlarni oʻz ichiga oladi – yaʼni bitta butun maʼnoga ega boʻlgan va koʻpincha bir soʻz bilan almashtirilishi mumkin boʻlgan juftliklar. Bu yondashuvni Meyer (1889) va Salomon (1919) singari tadqiqotchilar ham qoʻllab-quvvatlagan.

Zwillingsformel yoki *Paarformel* atamasi, odatda, quyidagi xususiyatlarga ega binomlarga nisbatan qoʻllanadi:

Semantik jihatdan noaniqlik;

Formulaviylik (ya'ni, boshqa idiomatik birliklar singari struktura jihatidan barqarorlik);

Irreversivlik (ya'ni, komponentlar o'rnini almashtirish mumkin emas).

Bu yondashuv Malkielning qat'iy va qat'iy bo'lmagan binomlarni qamrab oluvchi kengroq konsepsiyasidan sezilarli darajada farqlanadi.

Gustafsson (1975) binomlarni "bir xil so'z turkumiga mansub, sintaktik jihatdan teng va semantik bog'langan ikki so'z ketma-ketligi" deb ta'riflaydi. U, ayniqsa, gapning rematik (yangilik beruvchi) qismini tashkil etuvchi ot binomlarining funksional roliga e'tibor qaratadi.

Mollin esa Malkielga yaqin yondashuvni taklif qilgan bo'lsa-da, "so'z" atamasi o'rniga "leksema" tushunchasini qo'llaydi. Bu unga bir nechta so'zdan iborat birliklarni ham binom deb qarash imkonini beradi. Masalan: policy and decision making.

Malkielning (1959) ta'rifiga ko'ra, binomlar – bu bir xil so'z turkumiga mansub leksik elementlardan tashkil topgan (qat'iy yoki qat'iy bo'lmagan) bog'langan so'z juftliklaridir. Bu birliklar sintaktik chegaralar doirasida qoladi va odatda teng sintaktik maqomga ega bo'ladi. Malkiel "sintaktik ierarxiyada teng daraja" tushunchasi orqali binomlarning nafaqat leksik elementlarni, balki ayrim holatlarda sintaktik jihatdan mustaqil gap qismlarini bog'lashini anglatadi. Masalan, "we went there and then we did..." kabi gapda "there and then" iborasi binom emas, balki ketma-ket voqeani ifodalovchi sintaktik birlikdir.

Malkiel ta'kidlaganidek, oldingi tadqiqotlar binomlarni turli nomlar ostida (masalan, idiomatik juftliklar sifatida) va ularning faqat ayrim shakllarini o'rganib, bu hodisani to'liq qamrab olmagan (Malkiel 1959: 113–114). Masalan, nemis tilshunosligidagi Zwillingsformel ("egizak formula") tushunchasi faqat qat'iy binomlarni – ya'ni bir butun ma'noga ega bo'lgan va bitta so'z bilan almashtirilishi mumkin bo'lgan juftliklarni nazarda tutadi. Meyer (1889) va Salomon (1919) kabi tadqiqotchilar binomlarni aynan bunday qat'iy juftliklar bilan chegaralagan. Nemis va ingliz tilshunosligida qo'llaniladigan Zwillingsformel yoki Paarformel atamaları odatda quyidagi xususiyatlarga ega binomlarni anglatadi: (1) semantik jihatdan noaniqlik, (2) formulaviylik, (3) qaytarilmaslik (Müller 2007: 20). Bu yondashuv Malkielning kengroq va inklyuziv pozitsiyasidan farqlanadi.

Gustafsson (1975) esa binomlarni "bir xil so'z turkumiga mansub, sintaktik jihatdan teng va semantik bog'langan ikkita so'z ketma-ketligi" sifatida ta'riflaydi (74–75). Uning fikricha, binomlar ko'pincha gapning rematik (yangilik keltiruvchi) qismida joylashadi va otlardan tashkil topadi. Mollin (2014) bu yondashuvni yanada kengaytirib, binomlarni "bir xil so'z turkumidagi ikkita leksemaning bog'lanishi" deb ataydi va ba'zan ular bir nechta so'zdan iborat bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi (masalan, policy and decision making). Shu sababli, u "so'z" o'rniga "leksema" atamasidan foydalanadi.

Agar Héraucourtning kengaytirilgan ta'rifi qabul qilinsa, ko'plab binomlar ham hendiadis deb baholanishi mumkin. Biroq, binom atamasi strukturaviy jihatdan kengroq bo'lib, semantik jihatdan nisbatan tor hendiadisdan ustun turadi.

Binomial birliklar bilan bog'liq tushunchalar zamonaviy tilshunoslikda turli yondashuvlar – strukturaviy, funksional, semantik va psixolinguistik nuqtai nazardan izohlanmoqda. Ularning tartibi, komponentlar o'rtasidagi semantik munosabat, fonetik uyg'unlik va foydalanish chastotasi kabi jihatlar binomial hosilalarning stabil va ifodali tuzilma sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, maqolada binomial hosilalarning tasnifi, ularning reversiv va irreversiv xususiyatlari, nutqdagi funksional vazifalari hamda kognitiv asoslari haqida mavjud ilmiy qarashlar tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, binomial birliklar tahliliga multidisziplinar yondashuv qo'llash – ya'ni tilshunoslikni psixologiya, madaniyatshunoslik va kommunikativ nazariya bilan bog'lash – ularni chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, binomial hosilalar bilan bog'liq tushunchalarning ilmiy talqini ularning lingvistik tizimdagi o'rnini aniqlash, klassifikatsion mezonlarini ishlab chiqish va ularni boshqa frazeologik birliklardan farqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola mazkur sohadagi izlanishlarga hissa qo'shadi, shuningdek, keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dámová, K. Binomials in English: Fixed and Variable Structures in Language and Literature / K. Dámová. – Praha: Charles University, 2017. – P. 33.
2. Gustafsson, M. A semantic and syntactic study of binomials in present-day English / M. Gustafsson. – Turku: Turun Yliopisto, 1975. – P. 11.
3. Gustafsson, M. Binomial Expressions in Present-Day English: A Syntactic and Semantic Study / Marianne Gustafsson. – Åbo: Åbo Akademi, 1975. – S. 74–75.
4. Malkiel, Y. Studies in irreversible binomials / Yakov Malkiel // *Lingua*. – 1959. – Vol. 8. – P. 113–114, 155–156, 160
5. Mollin, S. (2014). *Corpora and Language Education*. Basingstoke: Palgrave Macmillan. – P. 10.
6. Mollin, S. *English Binomials: A Corpus-Based Study of Lexical Ordering Tendencies* / Sandra Mollin. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2014. – P. 8, 45
7. Müller, R. *Zwillingsformeln im Deutschen: Syntagmatische Binomialformeln im Sprachsystem und Sprachgebrauch* / Roland Müller. – Tübingen: Narr Francke Attempto, 2007. – S. 20.